

AVLODLARARO MULOQOTDA QADRIYATLAR MUVOZANATINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

*Mirzaxanova Dilfuzा Nig'matulla qizi
O'zXIA stajyor doktoranti*

Annotatsiya: Hozirgi kunda hayotiy qadriyatlarni shakllanishi yangi bosqichini boshdan kechirmoqda, bu zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar, yashash uchun imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog'liq. Hayotiy qadriyatlarni haqidagi g'oyalar evolyusiyasini tahlil qilish, uni erta tajriba bilan aniqlangan ongsiz tuzilma sifatida talqin qilishdan uzoqlashish va uni inson mavjudligining turli kontekstlarini bog'laydigan ko'p o'lchovli konstrukt sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, Respublikamizda hayotiy qadriyatlarni muammosini ilmiy tadqiq qilish masalasiga keyingi yillarida yanada e'tibor ortdi va bu borada muayyan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi.

Kalit so'zlar: hayotiy qadriyatlarni, nosog'lom muhit, noaxloqiy xulq-atvor, sotsiosentrik qadriyatlarning integrasiyasi, sotsiologik tahlil, fenomenologik yondashuv, "Avlodlararo vorisiylik", mualliflik metodikasi, hayot modeli.

Аннотация: В настоящее время формирование жизненных ценностей переживает новый этап, который связан с изменениями в современном обществе, расширением возможностей для жизни. Анализ эволюции представлений о жизненных ценностях позволяет отойти от интерпретации ее как бессознательной структуры, детерминированной ранним опытом, и рассматривать ее как многомерный конструкт, связывающий разные контексты человеческого существования.

Из наблюдений известно, что в последующие годы вопросу научного исследования проблемы жизненных ценностей в нашей Республике стали уделять больше внимания и в этом отношении достигнуты определенные успехи.

Ключевые слова: жизненные ценности, нездоровая окружающая среда, аморальное поведение, интеграция социоцентрических ценностей, социологический анализ, феноменологический подход, «Межпоколенная наследственность», авторская методика, модель жизни.

Abstract: Currently, the formation of life values is going through a new stage, which is associated with changes in modern society and the expansion of life opportunities. Analysis of the evolution of ideas about life values allows us to move away from interpreting it as an unconscious structure determined by early experience, and consider it as a multidimensional construct that connects different contexts of human existence.

It is known from observations that in subsequent years the issue of scientific research into the problem of life values in our Republic began to be given more attention and certain successes have been achieved in this regard.

Keywords: life values, unhealthy environment, immoral behavior, integration of sociocentric values, sociological analysis, phenomenological approach, "Intergenerational heredity", author's methodology, life model.

Hozirgi kunda hayotiy qadriyatlarni shakllanishi yangi bosqichini boshdan kechirmoqda, bu zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlar, yashash uchun imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog‘liq. Hayotiy qadriyatlar haqidagi g‘oyalar evolyusiyasini tahlil qilish, uni erta tajriba bilan aniqlangan ongsiz tuzilma sifatida talqin qilishdan uzoqlashish va uni inson mavjudligining turli kontekstlarini bog‘laydigan ko‘p o‘lchovli konstrukt sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, Respublikamizda hayotiy qadriyatlar muammosini ilmiy tadqiq qilish masalasiga keyingi yillarida yanada e’tibor ortdi va bu borada muayyan muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. B.R.Qodirovning ilmiy tadqiqot faoliyatları məktəb o‘quvchilari, o‘smirlar shaxsini o‘rganishda, ularning individual xususiyatlarini kompleks tadqiqot qilishda alohida o‘rin tutadi. Professor B.R.Qodirov tadqiqotlarida shaxsning shakllanish jarayonida faoliyatning o‘rni, atrofmuhit va otaona, oilada amal qilinadigan muhim qadriyatlarning ta’siri masalasi yoritiladi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, nosog‘lom muhit va noto‘g‘ri yo‘naltirilishi shaxs xulqida salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi¹.

Sh.Z.Taylanova o‘zining “Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish” nomli ilmiy tadqiqotida pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirishning kognitiv, pedagogik faoliyatga shaxsiy munosabatni aks ettiruvchi emosional va pedagogik faoliyatda aksiologik munosabatni qaror toptirishning xulq-atvor komponentlari sotsiosentrik qadriyatlarning integrasiyasini asosida asoslab bergen. Shuningdek, ushbu dissertasiyada talabalarda qadriyatlar yo‘nalganligining refleksiv modeli pedagoglik kasbiga qadriyatli munosabatni to‘liq anglash imkonini beradigan ichki va tashqi bloklarining loyihalash hamda texnologik jihatlari integrasiyasini asosida yoritib berilgan hamda talabalarda o‘qituvchilik kasbiga qadriyatli yo‘nalganlikni tarkib toptirishning ko‘p tarmoqli qadriyatlar tizimi, shaxslararo munosabat va shaxsiy-kasbiy rivojlanishdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi sotsial-pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir mualliflik metodikasi ishlab chiqilgan².

R.Sh.Bozorova “Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari” nomli tadqiqot ishida oilalarda farzandlarda mehrni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy moddiy-ma’naviy merosi, zamonaviy dunyoviy bilimlarni chuqur egallash orqali shakllantirish, har bir yoshning aqliy salohiyatini va ijodiy qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish masalalari o‘rganiladi hamda avlodlarga ajdodlarni qadriyatlarini singdirishda oila muhim o‘rin tutishi haqida to‘xtalib o‘tiladi³.

S.M.Kalanova “Jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining sosiologik tahlili” nomli tadqiqoti davomida bugungi odamlarning tarqoqligi va murosasizligi vaziyatida avlodlararo munosabatlarning tiklanishi zamonaviy jamiyatning

¹ Qodirov B.R. Ta’lim tizimidagi islohatlar maqsad va yo‘nalishlari. –T.: O‘zbekiston, 1999. – 32 b.

² Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari falsafa doktori ... dis. avtoreferati: 13.00.01 Samarqand davlat universiteti. Samarkand, 2018.

³ Bozorova R. Sh. Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari Falsafa fanlari falsafa doktori (PhD) ... dis. avtoreferati: 09.00.04 - Ijtimoiy falsafa. Buxoro, 2022. – 20 s.

barqarorligini ta'minlovchi omil bo'lishi mumkin, degan fikrga keladi. U o'z tadqiqotida "Avlodlararo vorisiylik" tushunchasining asosiy jihatlarini fanlararo diskurs doirasida tahlil etishga erishdi hamda avlodlararo vorisiylikning madaniyatni uzatish jarayoni sifatidagi mohiyati va mexanizmlari olib berildi. Uning fikricha, avlodiy yondoshuv ijtimoiy vaziyatda bir paytning o'zida birga mavjud bo'ladigan uch hayotiy o'lchovning tahlil qilinishini nazarda tutadi: bular, yoshlar avlodi, o'rta yoshlilar avlodi va keksalar avlodi. Hozirgi zamonda avlodlararo vorisiylikning o'ziga xosligi, bu jarayon nafaqat avlodlar almashinuvi, balki siyosiy, iqtisodiy va sosiologik tartiblarning almashinuvida kechayotgani bilan belgilanishini ta'kidlab o'tadi⁴.

Umuman olganda, respublikamizda turli avlod vakillarining qadriyatlarini o'rganish masalasiga keyingi yillarida yanada e'tibor ortdi va turli soha vakillari bu borada muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganlarini yuqoridagi tadqiqotlardan ham ko'rshimiz mumkin. Shu kungacha rus ijtimoiy psixologiyasida ham qadriyatlarni o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Unda qadriyatlar xulq-atvor me'yordagi sifatida, faoliyatni boshqarish va yo'naltirish asosi sifatida, ijtimoiy guruqlar bilan bog'liq ravishda shakllanadigan xulq-atvorning ijtimoiy tartibga solish mexanizmlarini asosi sifatida o'rganilgan.

Qadriyatni ijtimoiy-madaniy jihatdan o'rganish jamiyat rivojlanishining har bir bosqichini sifat jihatidan o'ziga xosligini tavsiflashga imkon beradi. S.L.Rubinshteyn "qadriyatlar... jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlardan vujudga keladi, moddiy-ma'naviy narsalarni ifodalaydi va shu jumladan insoniyat yashash jarayonida inson uchun muhim bo'lgan narsalarni yaratadi", degan edi [S.L.Rubinshteyn, 1973].

Xulq-atvorning motivasion asoslarini batafsil tahlil qilish T.Parsons tadqiqotlarida keltirilgan. Uning yondashuviga ko'ra "qadriyatlar ijtimoiy tizimlar tomonidan jamiyatdagi me'yordarni saqlash va ko'paytirish funksiyasini bajarish nuqtai nazaridan yetakchi o'rinni egallaydi" [T.Parsons, 1998]. Muallifning fikricha, jamiyat tarixidagi har qanday voqeani, ijtimoiy xulq-atvor sxemasini, agar ularni tushuntiruvchi motivlar aniqlanmasa, tushunish qiyin bo'ladi, bunda asosiysi qadriyat motivasiyasini hisoblanadi, ya'ni T.Parsons qadriyatni tizim sifatida ko'radi. Yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy sub'yeqtarning o'zaro hamjihatligi, kelishuvi, hamkorligi asosidagi faoliyatining natijasidir, u o'zgarishlarni amalga oshirish davrini qamrab oladi. Bu davrda bir tomonidan, ilgarigi qadriyatlar tizimining muayyan ta'siri, ikkinchi tomonidan esa yangi tizimning turli jarayonlar, o'zgarishlar orqali o'ziga yo'l ochayotganligining guvohi bo'linadi⁵.

O'zbekistonda ham ana shunday jarayon davom etmoqda. Bu jarayonda tarixning burilish davrlarida sodir bo'ladigan umumiyligini qadriyatlar fenomeni bilan, ya'ni kishilar ilgaridan o'rganib qolgan ba'zi jihatlar va xususiyatlarning o'z qadrini muayyan davrdan keyin yo'qotilishi holati sodir bo'lishi mumkin. Zero, insonlar o'sha qadriyatlar ustuvor bo'lgan davrda yashaganligidan, ularning tajribasi butun-butun avlodlarni o'rab turuvchi ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lganligidan bu qadriyatlarning ta'siri kishilarning turmushi, faoliyati va qiyofasida biror muddat

⁴ Kalanova S.M. Avlodlar almashinuvi yangi sosiomadaniy qadriyatlar shakllanishining omili sifatida //sos. fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 2018. -133 b.

⁵ Qahhorova M. Vorislik – xulq-odob qadriyatlarini shakllantirishning muhim omili. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. -T.: O'zMU, 2000. -135 b.

davomida saqlanib qolishi tabiiy hol⁶.

So‘nggi paytlarda hayot yo‘li, hayotiy qadriyatlar an’anaviy tushunchasi bilan bir qatorda, insonning hayot stenariysi tushunchasi tobora ko‘zga tashlana boshladi, u mutaxassislarning fikricha⁷ ko‘p jihatdan insonning o‘z hayotining muallifi sifatida tushunishiga javob beradi, o‘z hayotiga nisbatan uning “muallifligini”, “qayta qurish”, hayot yo‘lini o‘zgartirish imkoniyatini e’tirof etadi, o‘zgaruvchan dunyoda o‘z hayotining ijodkori sifatida inson mavjudligining jihatlarini ajratib ko‘rsatadi⁸.

Hayotiy qadriyatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, hayotiy qadriyatlar hayot modeli tushunchasi sifatida ko‘pincha E.Bern g‘oyalariga mos ravishda tushuniladi, ya’ni bola va ota-onas munosabatlari bilan bog‘liq vujudga kelgan patologik stenariy yechimlari o‘rganiladi⁹. Hayotiy qadriyatlar, hayot ssenariysi ko‘rinishida ham uni turli jihatlarda tushunish mumkinligini ko‘rsatadi¹⁰:

- oila a’zolari ta’siri ostida yoshlikdan ongsiz ravishda vujudga keladigan va shakllangan hayot rejasi sifatida, unga ko‘ra odamlar uzoq vaqt va hatto butun hayotlarini turli e’tiqod, an’analarga oid o‘yinlar bilan to‘ldirish rejasi asosida tuzadilar;

- turli hodisalarning avtomatlashtirilgan ko‘rinishlari – hodisalarning ketma-ketliklari, maqsadlari, shart-sharoitlari haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi¹¹;

- shaxsiy kechinmalar orqali mavjud tajribani tartibga keltirish jarayoni¹²;

- kreativlik orqali o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan hayotning shaxsiy voqe-hodisa tasvirini tuzish jarayoni.

Hayotiy qadriyatlarning vazifasi umumiylar ma’nosisi o‘tmish, hozirgi va kelajakni ma’lum bir ma’noda oldindan belgilash, harakat va voqealarning (sub’yektga bog‘liq vaziyatlarda) tartiblashtirishdir¹³. Bu tushunchaning murakkabligi va “ko‘lami” uning tarkibida ma’lum komponentlarning mavjudligini anglatadi.

E.Bern, Yu.V.Sinyagin, O.Yu.Pereverzina, Yu.A.Yakovleva, A.V.Polyakovaning ishlarida hayotiy qadriyatlar “hayot rejasi”, “hayot strategiyasi”, “hayotiy maqsad”, “hayot stili” va boshqa tushunchalar bilan ma’nojihatdan o‘xshashi ko‘rsatib o‘tilgan¹⁴. Hayotiy qadriyatlar bilan bog‘liq terminlarga izoh beriladigan bo‘lsa, insonning hayot yo‘li – bu tug‘ilganidan o‘lguncha bo‘lgan davr bo‘lib, bunda irsiyat va ekstremal vaziyatlar bilan birga asosiy elementlardan biri sifatida ko‘rinadi¹⁵.

⁶ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to‘plami). –T; “O‘zbekiston”, 1997. -198 b.

⁷ Алюшева А.Р. Овладение репертуаром культурных жизненных сценариев как фактор развития макроструктуры автобиографической памяти // Психологич. исследования, 2012. Т.5, №25. - 22 с.

⁸ Бочавер А.А. Исследования жизненного пути человека в современной зарубежной психологии // Психологический журнал. 2008. № 5. С. 54–62.

⁹ Берн Э. Игры, в которые играют люди: психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры: психология человеческой судьбы. Психология человеческих взаимоотношений. М.: Эксмо-пресс, 2012. - 576 с.

¹⁰ Мизинова И.А. Жизненный сценарий личности: основные подходы к рассмотрению // Известия Сарат. ун-та. Нов. сер. Сер. «Философия. Психология. Педагогика». 2013. Т. 13. Вып. 4. С. 59–64.

¹¹ Заев С.В. Взаимосвязь супружеских сценариев и гендерных характеристик личности в процессе семейного самоопределения молодежи: дис... канд. психол. наук. Краснодар, 2006. -185 с.

¹² Мизинова И.А. Жизненный сценарий личности: основные подходы к рассмотрению // Известия Сарат. ун-та. Нов. сер. Сер. «Философия. Психология. Педагогика». 2013. Т. 13. Вып. 4. С. 59–64.

¹³ Пряжников Н.С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. -М.: Академия, 2007. -189 с.

¹⁴ Синягин Ю.В., Перееверзина О.Ю., Яковleva Ю.А., Полякова А.В. Основные подходы к исследованию жизненных стратегий личности // Акмеология. 2010. № 1. С. 119–126.

¹⁵ Москвичева Н.Л., Реан А.А., Костромина С.Н., Гришина Н.В., Зиновьевна Е.В. Жизненные модели молодых

Hayot rejasi tushunchasi esa inson hayotda o‘z o‘zini anglashi jarayonida hayotdagи maqsadlarini yakuniy natijalarini tasavvurlar, obrazlar orqali asosiy bosqichlarini aniqlashni nazarda tutadi (Ye.V.Maksimova, 2008). L.A.Gubarevaning fikriga ko‘ra, insonning hayotiy maqsadlarini yo‘nalganligi, uning hayot mazmunini o‘ziga xos mazmuniga bog‘liq, bu esa o‘z navbatida hayotiy shiorni shakllantiradi. Aynan hayot maqsadi va ma’nosini aks ettirgan hayotiy shior hayotning asosidir¹⁶. Hayot tarzi esa – bu individual, shaxsiy va xulq-atvordagi xususiyatlarga bog‘liq bo‘lgan insonning o‘zini hayotini boshqarishning “umumlashgan” usulidir.

Turli avlod vakilalari bo‘lgan ayollarning hayotiy ssenariylari hamda o‘smirlar, yoshlar va yoshi katta insonlarning madaniy ssenariylari tadqiq qilingan¹⁷. Ayollarni krizis vaziyatlarni boshidan kechirayotgan sharoitdagi qadriyatlarining o‘ziga xos mazmuni ham o‘rganilgan. Har bir insonning qadriyatları u yashagan hayotiy sharoitlarga bog‘liq darajada shakllanadi. Inson hayotining erta bosqichlarida inson ko‘p darajada normativ talablarga bo‘ysunadi. Imkoniyatlarning xilma-xilligi, murakkabligi va noaniqligi bilan ajralib turadigan zamonaviy dunyoda normativ qadriyatlar individual ustuvorlikka aylanib, inson hayot tanlovlariiga ehtiyoj sezmoqda. Shu bilan zamonaviy insonning individual hayotiy qadriyatları aslida uning hayot faoliyatining natijasidir.

Hayotiy qadriyatlar tanlovi haqida insonning hayot bilan o‘zaro aloqasi jarayonida qabul qiladigan va uning keyingi hayot yo‘lini belgilaydigan eng muhim hayotiy qarorlari haqida S.L. Rubinshteyn (1989) yozgan edi: “Inson o‘z tarixining bir bosqichida kim edi, keyingisida kim bo‘lgani qilgan ishlari orqali bilinadi”. Zamonaviy tadqiqotchilar insonning hayotiy qadriyatlarini uning ekzistensial bajarilganlik, hayot mazmunini anglaganligi, hayotiy turg‘unlik tushunchasi bilan bog‘laydilar, bunda inson o‘z hayotining yaratuvchisi ekanligi va bu o‘zining hayoti uchun javobgar ekanligi sifatida anglashiga e’tibor qaratiladi. Hayotiy qadriyatlarning turli jihatlariga bag‘ishlangan va shaxsiy yondashuv doirasida bajarilgan bir qator ilmiy ishlarda sub‘yekt tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi.

“Shaxsning funksiyalari, deb yozadi Ye.A.Sergiyenko, bu shaxsiy ma’nolar, qadriyatlar, hayotiy yo‘nalishlarning natijasi; voqealar yoki vaziyatlarga bo‘lgan munosabat sifatidagi kechinma; voqelikning ma’lum muhim jihatlariga yo‘nalganligidir”¹⁸. Shu munosabat bilan aynan shaxsdagi normativ ideal va individual ustuvorliklarni mazmuni, ularning vujudga kelishi, o‘ziga xosligi uchun javobgardir, ya’ni inson o‘z hayotiy ssenariysining yaratuvchisi hisoblanadi. Hayotning u yoki bu sohalarini ajratish tadqiqot vazifalari bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hayotiy qadriyatlar shaxsning qiyin kognitiv tuzilmasi bo‘lib, u shaxsiy hayotni rejalashtirish, tizimlashtirish, konstruksiyalash qobiliyatida ko‘rinadi. Bu inson rivojlanishining shunday programmasiki, uning asosida xulq-atvor shakllanadi. Hayotiy qadriyatlar shakllanishining eng muhim davri

людей: представления о будущей семье и модели, транслируемой родителями // Психологическая наука и образование. 2019. Том 24. № 3. С. 5–18

¹⁶ Шанин Т. История поколений и поколенческая история // Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. - М.: Новое литературное обозрение, 2005. С. 17-38.

¹⁷ Tekcan A.İ., Kaya-Kızılıöz B., Odaman H. Life scripts across age groups: A comparison of adolescents, young adults, and older adults // Memory. 2012. Vol. 20, iss. 8. P. 836–847.

¹⁸ Сергиенко Е.А. Современные идеи развития в психологии // Принцип развития в современной психологии / отв. ред. А.Л.Журавлев, Е.А.Сергиенко. М.: Институт психологии РАН, 2016. С.106-107.

erta rivojlanish davri bo‘lib, u hayot mazmuni va maqsadlarni belgilash bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov B.R. Ta’lim tizimidagi islohatlar maqsad va yo‘nalishlari. –T.: O‘zbekiston, 1999. – 32 b.
2. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi, 2014. – 280 s.
3. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi. – T., “Sharq”. 2008. – 296 b.
4. Баратов Ш.Р. Социально-психологические и научнопрактические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Т., 1998, - 37 с.
5. Karimova V.M. Yoshlarda o‘zbek oilasi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar : Dis. dokt. psixol. nauk. –T., 1994. – 258 b.
6. Sodiqova Sh.M. Avlodlararo vorislikni ta’minlashda qariyalarning o‘rni (sosiologik tahlil) // sosiologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 2006. – 126 b.
7. Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari falsafa doktori ... dis. avtoreferati: 13.00.01 Samarqand davlat universiteti. Samarkand, 2018.